

Course: Islamic Finance

Lecture 6: Islamic Banking Services

(Project financing)

Prepared by: Dr. Shaamirova Surayyo

Bay' salam va uning shartlari

Salam savdosi nasiya molni naqd bahoga sotishlik yoki zimmasiga vojib bo'lgan narsani naqd bahoga sotishlik. Ya'ni molning narxi avvaldan berilib evaziga beriladigan molni keyinchalik ma'lum bir muddatda olishga kelishishdir. Go'yoki bir shaxs boshqasiga "Mana yuz ming so'm. Evaziga falon shaharni masalan Surxondaryoni falon navli bug'doyidan falon muddatda masalan iyul oyida menga yetkazib berasiz" deyishligiga o'xshash. Bu savdo umumiy savdolaridan farq qiladi. Aslida qoida shuki hali mavjud bo'lmagan yoki mulkiga kirmagan narsani sotish joiz emas.

Lekin Rasululloh sollallohu alayhi vasallam odamlarni bay' salamga bo'lgan ehtiyojlarini ko'rib bunga ruxsat berganlar. Bu savdo ham boshqa savdolar kabi ijobi-qabul ya'ni "Menga shuncha narsa yetkazib bering!" va "Shuncha so'm evaziga shu narsani yetkazib beraman" deyishligi bilan tamom bo'ladi. Ijobi-qabul hanafiylar nazdlarida bitmning rukni hisoblanadi. Qolgan uch imomlar nazdida iyjob – qabuldan tashqari salam savdosi bitmini tuzuvchi muslim va musulmun ilayh, ro'su molissalam(sarmoya), musulmun fiyhi(etkazib berilishi va'da qilingan mol)ni ham shart qilingan. Xaridorni salam egasi yoki «muslim», sotuvchi esa «muslamun ilayh», sotiladigan mol esa «muslamun fiyhi», qiymat esa «ro'su molissalam» deyiladi. Jumhur ulamolar nazdida salam qildim, salaf qildim va sotdim, lafzlarini ishlatish joiz. Imom Zufar va Shofe'iyalar nazdida yo'q narsani sotishga to'g'ri kelganligi uchun savdoni

salam yoki salam lafzlari bilan amalga oshirish kerak. Chunki shari'at shu ikki lafz bilan bu savdoni joizligiga ruxsat bergan.

Shari'atda joizligiga dalil.

يَا أَيُّهَا الَّذِينَ آمَنُوا إِذَا تَدَايَنْتُمْ بِدِينٍ إِلَىٰ أَجَلٍ مُّسَمًّى فَاكْتُبُوهُ

«Ey iymon keltirganlar! Ma'lum muddatga qarz oldi-berdi qilgan vaqtingizda uni yozib qo'ying...» (Baqara surasi, 282-oyat)

Abdulloh ibn Shaddot ibn Ilhod va Abu Muso Ash'ariyning o'g'li Abu Burda bilan salam savdosi borasida ixtilof paydo bo'ldi. Ibn Shaddot salam savdosi joiz bo'lmasa kerak, chunki unda sotiladigan narsa yo'qku – degan hayolga bordi. Abdulloh ibn Abu Mujolid aytadi: «U ikkovlari meni Ibn Abu Avfoning xuzuriga jo'natishdi. Men bu borada undan so'radim. Ibn Abu Avfo: «Biz Rasululloh sollallohu alayhi vasallam, Abu Bakr va Umar zamonalarida bug'doy, arpa, mayiz va xurmoda salam savdosini qilar edik», dedi. Ibn Abzodan ham so'ragan edim, u ham shunday dedi».

Ibn Abbos roziyallohu anhumo «Mu'ayyan muddatda yetkazib berishlikni zimmaga olish savdosini Alloh O'zining kitobida halol qilgandir va men bunga izn berganligiga guvohlik beraman» deb yuqoridagi oyatni o'qidi. Sunnatdan dalil esa Ibn Abbos roziyallohu anhumo keltirgan quyidagi hadisidir. «Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Madinai munavvaraga kelganlarida Madina ahli bir, ikki, uch yilga salam savdosini qilishar edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: «Kim biror narsada salam savdosini qilsa, ma'lum bir o'lchov, ma'lum kilo va mu'ayyan muddatga qilsin!» dedilar». Imom Buxoriy rohimahulloh salam savdosiga tegishli hadislarni juda ko'p sanadlari bilan rivoyat qilgan bo'lib, xulosasini aytganda, salam savdosi kayliy yoki vazniy narsalarda bo'lsin va beriladigan muddati tayin bo'lsin!

Salam savdosida bir necha narsalar shart qilinadi.

Sarmoya(pul)ning shartlari. Ular oltitadir.

- 1-sarmoya har xil narsalardan: pul yoki don-dun va boshqa narsalar bo'lishi mumkin. Sarmoya pul o'rnida ishlatilayotgan narsa bug'doy, paxta, moy, sement kabi narsalardan bo'lsa uning jinsi ma'lum bo'lsin.
- 2-Sarmoya o'laroq ishlatilyotgan sement, bug'doy va paxtaning qaysi joy va qaysi zavodniki ekanligi ma'lum bo'lsin.
- 3-sifati tayin bo'lsin. Ya'ni oliy, o'rta yoki past.
- 4-sarmoya ya'ni beriladigan qiymat tayin bo'lsin. Masalan, agar pul bo'lsa so'mligi yoki mu'ayyan valyutaligi va miqdori aniq bo'lishi.
- 5-Abu Hanifa rohimahullohning fikrlariga binoan tillo yoki kumushga savdo qilinsa, tillo kumushni probasi(sifati) tayin qilinsin. Lekin bugungi kunimizda savdo qog'oz pullarga bo'layotganligi uchun so'm yoki valyuta ekanligi tayin qilinsin.
- 6-«ro'sul mol» molning qiymati naqd qilib berilib, bitm tuzuvchilar majlisidan tarqalishidan avval, mol yetkazib beruvchi taraf molning qiymatini to'laligicha qo'lga olishi shart. Qiymatning hammasini to'laligicha qo'lga olmasdan majlisidan turib ketishsa, dayn(zimmadagi narsa)ni dayn(zimmadagi narsa) evaziga sotgan bo'ladilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam nasiyani nasiyaga sotishdan qaytarganlar. Imom Molik rohimahulloh bitm vaqtida molning qiymatini kechiktirishni shart qilmay, berishni ikki yoki uch kunga kechiktirsa joiz, lekin uch kun undan ortiq kun ichida beraman, degan shart bilan bitm tuzilsa, salam fosid bo'ladi, degan.

Manba: fiqh.uz

Истисна – қурилиш ёки ишлаб чиқариш битими

Салам шартномаси каби маҳсулот пайдо бўлишидан олдин унинг олди-сотдиси амалга ошириладиган яна бир шартнома/тижорат тури Истисна деб аталади. Бунда буюртмачи мижоз/харидор ишлаб чиқарувчи (ёки қурувчи) ташкилотга муайян маҳсулотни ишлаб чиқариш (ёки бирор иншоотни қуриб бериш) буюртмасини беради. Агар ишлаб чиқарувчи буюртма берилган маҳсулотни ўз хом ашёсидан ишлаб чиқариш мажбуриятини олса Истисна битими юзага келади. Истисна жоиз бўлиши учун ишлаб чиқарилиши кутилаётган маҳсулот нархи томонларнинг розилиги билан белгиланиши, ҳамда маҳсулотнинг барча хусусиятлари бўйича бир келишувга эришишлари лозим.

Истисна шартномаси ишлаб чиқарувчига маҳсулотни ишлаб чиқариш масъулиятни юклайди, аммо, у ишлаб чиқаришни бошламасдан олдин томонлардан бири иккинчи томонга огоҳлантириш берган ҳолда, шартномани бекор қилиши мумкин. Бироқ, ишлаб чиқарувчи маҳсулотни ишлаб чиқаришни бошлагандан кейин шартномани бир томонлама бекор қилиб бўлмайди.

Истисна ва Саламнинг фарқлари

Истиснанинг ўзига хос жиҳатларини инобатга олиб, Истисна ва салам ўртасидаги бир неча фарқларни қуйида ёритиб ўтамиз:

- а) Истисна шартномасининг мавзуси (субъекти) доимо ишлаб чиқариш талаб этадиган нарса бўлади. Салам битимида эса ишлаб чиқариш талаб этиладиган ёки талаб этилмайдиган нарса ҳам бўлиши мумкин.
- б) Салам савдосида маҳсулот нархи тўлиқ равишда олдиндан тўланиши шарт, Истиснада эса шарт эмас.
- в) Салам шартномаси кучга киргандан сўнг бир томонлама бекор қилиниши мумкин эмас, лекин Истисна шартномаси ишлаб чиқарувчи ишни бошламасдан олдин бир томонлама бекор қилиниши мумкин.

г) Салам савдосида етказиб бериш муддати шартноманинг энг муҳим қисми саналади, аммо Истисно шартномасида етказиб бериш муддатининг кўрсатилиши шарт эмас.

Истисна ва Ижаранинг фарқлари

Юқорида айтиб ўтганимиздек Истисна шартномасида ишлаб чиқарувчи талаб этилган маҳсулотларни ўз хом-ашёсидан ишлаб чиқаради. Шунинг учун ҳам, Истисна бўйича ишлаб чиқарувчи, агар унда керакли хом-ашё мавжуд бўлмаса, ишлаб чиқарувчи керакли нарсаларни сотиб олади ва маҳсулотни тайёрлаш учун зарур ишларни амалга оширади. Агар керакли хом-ашё мижоз томонидан етказиб берилса, ишлаб чиқарувчи фақат меҳнат қилади (маҳоратини ишга солади), ва бу битим Истисна эмас, балки ижара дейилади. Чунки бунда мижоз ишлаб чиқарувчининг меҳнати / хизматини маълум ҳақ эвазига ижарага олапти. Талаб этилган маҳсулотлар сотувчи томонидан ишлаб чиқарилса, у уларни харидорга етказиб бериши керак. Харидор битимнинг мана шу босқичида маҳсулотларни рад қилиши мумкинми, деган савол туғилиши мумкин. Бу масалада Абу Ҳанифанинг энг машҳур шогирди Имом Абу Юсуфга кўра, агар маҳсулот шартнома бошида томонлар келишиб олган сифат ва хусусиятларга мувофиқ ишлаб чиқарилган бўлса, харидор маҳсулотни сотиб олишга мажбур. Ҳанафий мазҳаби қонунлари ҳам мана шу нуқтаи назар асосида шакллантирилган. Чунки ҳозирги замон савдо ва тадбиркорлик муҳитида ишлаб чиқарувчи ўз ҳисобидан маҳсулот ишлаб чиқарса-ю, аммо харидор у шартномани бирор жиддий сабабсиз, маҳсулот келишилган барча сифат белгилари ва хусусиятларга мувофиқ ишлаб чиқарилганига қарамасдан бекор қилса, ишлаб чиқарувчига катта зарар етади.

Етказиб бериш вақти

Юқорида айтиб ўтилдики, Истисна шартномасида етказиб бериш вақтининг ўрнатилиши мажбурий эмас. Аммо, харидор етказиб беришнинг энг сўнгги муддатини белгилаши мумкин; агар ишлаб чиқарувчи бу муддатдан кечиктирса, маҳсулотни олиш ва унинг нархини тўлаш мажбурияти харидорнинг бўйнидан соқит бўлади.

Багунги кунда, маҳсулотнинг белгиланган муддатда етказиб берилишини таъминлаш мақсадида айрим шунга ўхшаш шартномаларга жарима банди киритилмоқда. Агар ишлаб чиқарувчи белгиланган муддатда маҳсулотни тайёрлаб бермаса, ҳар бир кечиктирилган кун учун ҳисобланадиган жарима тўлашга мажбур бўлади. Истисна шартномасига ҳам шариат бўйича шундай жарима бандини киритиш мумкинми? Истисно шартномаси ҳақидаги бобларда мумтоз фақиҳларнинг асарларида бундай маълумот учрамайди, аммо, улар шунга ўхшаш жаримани ижара шартномалари учун жоиз дейишган. Улар айтишадики, мисол учун, бир киши тикувчига буюртма берса, унга бериладиган хизмат ҳақи етказиб бериш муддатига қараб фарқланиши мумкин. Тикувчини ёллаган киши “агар кийимни бир кунда тикиб берсанг, 1 млн.сўм тўлайман, агар икки кундан ўтиб кетса, 800 минг сўм оласан” деса, жоиз бўлади.

Шунга қиёсан айтиш мумкинки, Истисна шартномасида маҳсулот нархи етказиб бериш муддатига боғланиши мумкин. Шунингдек, томонлар ўзаро келишган ҳолда ҳар бир етказиб бериш кечиктириладиган муддат (кун/хафта/ой) учун нархни маълум миқдорга пасайтиришни келишиб олишлари мумкин.

Manba: <https://islommoliyasi.uz/uz/istisna/>

Foydalanilgan adabiyotlar

Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). (2015). Shariah standards (No. 1–57). Manama, Bahrain: AAOIFI.

Usmani, M. T. (2002). An introduction to Islamic finance. Karachi: Idaratul Ma'arif.

Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2011). An introduction to Islamic finance: Theory and practice. Singapore: Wiley.

Saleh, N. (1986). Unlawful gain and legitimate profit in Islamic law: Riba, gharar and Islamic banking. Cambridge: Cambridge University Press.

Al-Bukhari, M. I. (2001). Sahih al-Bukhari (M. M. Khan, Trans.). Riyadh: Darussalam.

Yusuf, M. S. M. (n.d.). Tafsiri Hilol. Tashkent: Hilol-Nashr.

Fiqh.uz. (n.d.). Bay' al-salam va uning shartlari. Retrieved from <https://fiqh.uz>

Islommoliyasi.uz. (n.d.). Istisna. Retrieved from <https://islommoliyasi.uz/uz/istisna/>